

Referat

MAVZU: KASB HUNAR KOLLEJLARIDA SEMINAR MASHG'ULOTINI TASHKIL ETISH.

Reja:

1. Ta'lim turlari va shakllari hamda ularning tavsifi.
2. Ta'lim pedagogik tizimlarining rivojlanish tendensiyasi.
3. O'qishni tashkil etish shakllari va ularning didaktikada rivojlanishi.
4. Darsda o'quvchilar o'quv faoliyatini tashkil etish zamonaviy shakllarining turlari.
5. Dars-o'qishni tashkil etish asosiy shakli.
6. Xulosa.
7. Foydalanilgan adabiyotlar

Ta'lim turlari va shakllari hamda ularning tavsifi. Didaktik g'oyalar (tizimlar) tarixiy taraqqiyot jarayonida yangi g'oyalar bilan boyib davr talabiga mos keluvchi tizimlarga aylanadi. Didaktik tizimlarning ketma-ketligi o'qitish nazariyasi va amaliyotining umumiy qonuniyatidir. Ta'lim turlari (yunoncha species) alohida, o'ziga xos xususiyatga ega. Pedagogik tizimlar turlari bo'yicha farq qiladi, keng qo'llaniluvchi tizimlar an'anaviy tizimlar deb ham ataladi. Ta'lim turlari o'quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirishga nisbatan turlicha yondashuvni ifodalaydi. Pedagogik tizimlarning asosiy turlari quyidagilardir:

- arxaik (ibtidoiy);
- qadimgi (SHumer, Misr, Xitoyda eramizdan avvalgi uchinchi ming yillik);
- avestiy (Baqtriya, Sug'diyona, Xorazmda – eramizdan avv. VII-VI asrlar);
- yunon (Ellins, rim-yunon, rim – eramizdan avv. V-I asrlar);
- o'rta asr (dogmatik, sxolastik V-XVI asrlar);
- yangi (tushuntirish, tushuntirish-ko'rgazmali, dasturlashtirilgan, masofali o'qitish muammoli-dasturlashtirilgan, kompyuterlashtirilgan innovatsion);

- xorijiy (tushuntirish, tushuntirish-ko'rgazmali, dasturlashtirilgan, muammoli-dasturlashtirilgan, kompyuterli o'qitish, masofali, Internet yordamida o'qitish va shu kabilar).

Avesto g'oyalariga ko'ra shakllangan pedagogik tizim eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda Markaziy Osiyo xududida zardushtiylik dini yuzaga kela boshlaganda tashkil topdi. "Avesto" zardushtiylik muqaddas manbai bo'lib, u o'z davrining ensiklopediyasi hisoblagan. "Avesto" g'oyalariga binoan bolalar va yoshlarni o'qitish hamda tarbiyalash quyidagilardan iboratdir:

- 1) diniy va ma'naviy tarbiyalash;
- 2) jismoniy tarbiya;
- 3) o'qish va yozishga o'rgatish.

YOshlarni tarbiyalashda ona erga, atrof-muhit, tabiatga muhabbat hissini uyg'otish muhim yo'nalish hisoblangan. "Avesto"da barkamol shaxs obrazi haqida aniq tasavvurlar ifoda etilgan.

Muntazam o'qitishning ilk turi qadimgi yunon faylasufi Sukrot (eramizdan avvalgi 469-399 er. avv. yillar) va uning o'quvchilari tomonidan keng qo'llagan yordamchi savollarga javob topish metodi hisoblanadi. Bu metod suqrotcha suhbat metodi nomini olgan. O'qituvchi (faylasuf) o'quvchida qiziqish, bilishga intilishni uyg'otadigan savoldan foydalanadi, mulohaza yuritish asosida o'quvchini voqea-hodisalarning mohiyatini idrok etishga undaydi. O'qituvchining mulohazasi ko'pincha ritorik savollarni muhokama qilish bilan to'ldirilib turiladi. Suqrotcha suhbatlar bir yoki bir necha o'quvchilar ishtirokida tashkil etiladi.

Dogmatik o'qitish – jamoa asosida idrok etish faoliyatining ilk turi bo'lib, o'rta asrlarda keng tarqalgan. O'rta asrlarda /arbiy Evropada dogmatik o'qitishda lotin tili, Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa arab tili etakchi o'rin tutgan. Musulmon pedagogik konsepsiyasi sezilarli intellektuallik xususiyatiga ega bo'lgan. Komillikka bilimlaridan faol foydalana oladigan odamgina erishishi mumkin deb hisoblangan. "Haqiqiy g'oyalar" (Abu Ali Ibn Sino. «Donishnoma» /«Bilimlar kitobi»), haqiqiy bilimlarni o'zlashtirishga ikki to'siq xalaqit qiladi: so'zlarining aniq va fikrlarining tushunarli emasligi.

Mazkur kamchilikni bartaraf etishda logika alohida o‘rin egallaydi. Musulmon mamlakatlarida bolani o‘qitish va tarbiyalashda u tomonidan Qur’onning arab tilida yod olinishi bilim eshallashning asosiy shart hisoblangan. Bundan tashqari XV-VII asrlarda bir qator maktablarda fors tili ham o‘rgatilgan. Asosiy ta’limni bolalar maktablari – boshlang‘ich maktabda olganlar (muqaddas kitobni o‘qish va talqin qilish mashg‘ulotlari, o‘qish, yozish va hisobga o‘rganganlar). Dogmatik o‘qitishda o‘quvchilarning asosiy faoliyatlari tinglash, o‘qish, yod olish, eslab qolish va matnni so‘zma-so‘z takrorlashdan iborat bo‘lgan.

Oliy ta’lim madrasalarda berilgan. Movarunnahtdagi eng yirik o‘quv maskanlari sirasiga Samarqand, Buxoro, Urganch va Ijduvondagi madrasalarni kiritish mumkin. Bu ma’rifiy markazlarining rivojlanishi XV-VII asrlarga to‘g‘ri kelgan. Madrasalarda o‘qitish fors tillarida olib borilgan. Talabalar majburiy tarzda arab tilini ham o‘rganganlar. O‘quv rejasiga grammatika, Qur’on, Hadis, ritorika, logika, metafizika, geologiya, adabiyot, huquqshunoslik kabi fanlar kirgan. O‘qitish asosan og‘zaki shaklda olib borilgan. Biroq talabalar foydalangan o‘quv adabiyotlari asta-sekin ancha ko‘p qirrali, turli-tuman bo‘lib boradi. Maktab ta’limi erkaklar uchun mo‘ljallangan. Ammo har bir badavlat oila qiz bolani o‘qitish uchun uyga o‘qituvchini taklif etgan.

Dogmatik o‘qitish o‘rniga asta-sekin o‘quv jarayonida ko‘rgazmalilikni keng jalb etish natijasida tushuntirish, tushuntirish-namoyish etish kabi ta’lim shakllari qo‘llanila boshlandi.

Ayni vaqtda respublika hududida faoliyat yuritayotgan zamonaviy ta’lim muassasalarida ta’limning eng muhim quyidagi uch turidan foydalanilmoqda:

- tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta’lim (u an’anaviy yoki axborot beruvchi ta’lim ham deb ataladi);
- muammoli o‘qitish;
- dasturlashtirilgan ta’lim yoki kompyuterli o‘qitish.

Bugungi kunda o‘rta asrda keng qo‘llanilgan ta’lim turlari – dogmatik va sxolastik o‘qitish elementlari ham saqlanib kelinmoqda.

Tushuntiruvchi-namoyil etuvchi ta'lim nomidan mohiyati anglanib turibdi. Ko'rgazmalilik asosida tushuntirishning asosiy metodlari tinglash va eslab qolish sanaladi.

Tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta'lim turi vaqtni tejash, o'qituvchi va o'quvchilarning kuchlarini asrash, qiyin bilimlarni tushunishni osonlashtirish, ta'lim jarayonini ancha samarali boshqarishni ta'minlaydi. Biroq muayyan kamchilikka ham ega, ya'ni, "tayyor" bilimlarni berish va o'quvchilarni bilimlarni o'zlashtirishda mustaqil hamda mahsuldor fikrlashdan ozod etish, o'quv jarayonini individuallashtirish, differentsiyalashtirish imkoniyatlarining kamligi.

Muammoli o'qitishda o'quv muammolarini hal etish jarayonida bilimlarni mustaqil egallash, o'quvchilarning ijodiy fikrlashlari va idrok etish faoliyatlarini rivojlantirish yo'li bilan ta'lim tashkil etiladi. Uning texnologiyasi turli-tumanligi bilan ajralib turmaydi, chunki o'quvchilarni faol idrok etish faoliyatiga jalb etish bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi. Ular ketma-ket tartibda va kompleks amalga oshirilishi kerak.

Bunday o'qitishda muammoli vaziyatni yaratish muhim bosqich hisoblanadi. Bunday vaziyatda fikrlash jarayonida qiyinchilik his etiladi. O'quv muammosi bir qadar qiyin, lekin o'quvchilarning kuchi etadigan bo'lishi kerak. Muammoni ilgari surish bilan birinchi bosqich yakunlanadi. Muammoni hal etishning keyingi bosqichida o'quvchilar savol bo'yicha mavjud muammoni ko'rib chiqadilar, tahlil qiladilar, javob topish uchun ularning etarli emasligini aniqlaydilar va etishmayotgan axborotni topishga intiladilar. Uchinchi bosqich muammoni echish uchun zarur bo'lgan bilimlarni turli usullar bilan egallashga qaratilgan. U hayoliga birdan fikr kelishi bilan yakunlanadi ("Men nima qilishni bilaman!"). SHundan keyin muammoni hal etish, olingan natijalarni tekshirish, dastlabki gipoteza bilan solishtirish, olingan bilimlar, malakalarni tizimlashtirish va umumlashtirish bosqichlari keladi.

Muammoli topshiriqlar savollar, o'quv masalalari, amaliy vaziyatlardan iborat bo'lishi mumkin. Muammoli savolda izlash va javoblar turli variantlari ko'zda tutiladi, ya'ni, oldindan tayyor javob bu erda mumkin emas. Muammoli

savolga misol: “Nima uchun temirdan yasalgan mix suvda cho‘kadi, temirdan yasalgan kema esa cho‘kadi?”.

Muammoli masala uni echish yo‘llarini mustaqil izlashga intilishni yuzaga keltiruvchi o‘quv-o‘rganish topshirig‘idir. Muammoli masala asosini mavjud bilimlari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar tashkil etadi. Muammoli masalaga misol: “ $2Q5 \cdot 3q21$ tengligi to‘g‘ri bo‘lishi uchun qanday amallarni bajarish kerak?”.

O‘qish jarayonida muammoli vaziyat sub’ekt (o‘quvchi) o‘zi uchun qiyin bo‘lgan masalani echishni istashi, lekin unga ma’lumotlar etishmasligi va u o‘zi ularni izlashi zarurligini ko‘zda tutadi. Muammoli vaziyatga misol: “6 ta gugurt qutisidan tomonlari bir gugurt qutisi kattaligiga teng 4 ta bir xil tomonli uchburchaklar yasang”.

Muammoli o‘qitishning afzalliklari: shaxsiy ijodiy faoliyatini tashkil etish asosida bilimlarni mustaqil egallash, o‘qishga qiziqishni uyg‘otish, mahsuldor fikrlashini rivojlantirish, o‘qitishning mustahkam va amaliy natijalari. Kamchiliklari o‘quvchilar idrok etish faoliyatlarini boshqarishning qiyinligi, muammoni qo‘yish va hal etish uchun ko‘p vaqt sarflanishi, muammoli vaziyatni yaratish va mustaqil echish imkoniyatini har bir o‘quvchiga taqdim etishning qiyinligi bilan belgilanadi.

Dasturlashtirilgan o‘qitish harakat (operatsiya)lar ketma-ketligi tizimini ifodalovchi, ularni bajarish ilgaridan rejalashtirilgan natijaga olib keluvchi “dastur” terminidan kelib chiqadi. Ushbu turning asosiy maqsadi o‘quv jarayonini boshqarishni yaxshilashdan iborat. Bunday o‘qitish asosini kibernetik yondoshish tashkil etadi. Unga binoan o‘qitish murakkab dinamik tizim sifatida qaraladi. Dasturlashtirilgan o‘qitish yangi didaktik, psixologik va kibernetik g‘oyalar asosida XX asrning 60-yillari boshlarida yuzaga keldi. U o‘quvchining bilim egallashi yo‘lida har bir qadamni nazorat qilishga imkon beradigan va shuning asosida o‘z vaqtida yordam ko‘rsatish, qiyinchiliklarini oldini olish, qiziqishini yo‘qotmaslik va salbiy oqibatlarning oldini olishga imkon beruvchi o‘quv jarayonining texnologiyasini yaratishga yo‘naltiradi.

Dasturlashtirilgan ta’limning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- o'quv materialining alohida qismlarga ajratilishi;
- o'quv jarayonining bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha bilimlar porsiyalari va fikrlash amallaridan iborat bo'lgan ketma-ket qadamlardan iborat bo'lishi;
- har bir qadamning nazorat bilan yakunlanishi (savol, topshiriq va shu kabilar);
- nazorat topshiriqlarini to'g'ri bajarganida o'quvchining yangi materiallarni olishi va navbatdagi qadamni bajarishi;
- to'g'ri javob topganda o'quvchining yordamchi va qo'shimcha tushuntirishlarni olishi;
- har bir o'quvchining mustaqil ishlashi, kuchi etadigan mavzu bo'yicha o'quv materialini egallaishi;
- barcha nazorat topshiriqlari bajarilish natijalarining qayd etilishi (ular o'quvchilarning o'zlariga (ichki qayta aloqa) va pedagogga (tashqi qayta aloqa) ma'lum qilinadi);
- o'qituvchining ta'lim tashkilotchisi va qiyinchilik yuzaga kelganda yordamchi (maslahatchi) sifatida ishtirok etishi, individual yondoshuvning amalga oshirilishi;
- ta'lim jarayonida o'qitishning o'ziga xos vositalarining keng qo'llanilishi (dasturlashtirilgan o'quv qo'llanmalari, trenajerlar, nazorat qilish qurilmalari, o'qitish mashinalari).

Kompyuterli ta'lim. O'qitish sohasida jahon didaktikasining muhim tajribasi - shaxsiy elektron-hisoblash mashinalari (SHEHM) rivojlanishi kompyuterli (kompyuterlashtirilgan) ta'limning shakllanishiga imkon berdi. Maxsus ta'lim dasturlari bilan ta'minlangan kompyuterlarni deyarli barcha didaktik masalalar: axborotni berish, o'qitish jarayonini boshqarish, natijalarini nazorat qilish va tuzatib borish, mashqlarni bajarish, o'quv jarayoni rivojlanishi haqida ma'lumotlarni to'plash va boshqalarni hal etishga moslashtirish mumkin.

Rivojlangan mamalakatlarda kompyuterlardan ta'limdan foydalanishning keng rivojlanishi bu boradagi quyidagi asosiy yo'nalishlarni aniqlashga imkon berdi:

- alohida o'quv fanlari (matematika, tabiiy fanlar, ona tili, chet tili, geografiya va boshqalar) bo'yicha o'zlashtirish darajasini oshirishni ta'minlash;

- umumiy kognitiv (idrok etish) qobiliyatlari – qo'yilgan masalani hal etish, mustaqil fikrlash, kommunikativ malakalarni egallash (axborotni to'plash, analiz, sintez qilish)ni rivojlantirish, u yoki bu ko'nikmani shakllantirishga imkon beruvchi jarayonlarga e'tiborni kuchaytirish.

Bundan tashqari kompyuterlardan avtomatlashtirilgan test sinovlari o'tkazish, baholash va boshqarishda keng foydalaniladi, bu o'qituvchi vaqtini tejashga imkon beradi, natijada pedagogik jarayonning samaradorligi oshadi.

Dasturlashtirilgan va kompyuterli ta'limlar o'qitish algoritmlarini ajratishga asoslanadi. Algortm to'g'ri natijaga olib keluvchi ketma-ket amallar tizimi sifatida bilim, ko'nikma va malakalarni to'la o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan o'quv faoliyati tartibi va ketma-ketligini o'quvchiga ko'rsatadi. O'quv dasturlari va kompyuterli ta'limning samaradorligi fikrlash faoliyatini boshqarish algoritmlarining sifatiga bog'liq. YOmon tuzilgan algortmlar kompyuterli o'qitishning sifatini keskin pasaytiradi.

Kompyuterli ta'limning sifati quyidagi ikki asosiy omil bilan aniqlanadi:

- 1) o'qitish dasturlarining sifati;
- 2) hisoblash texnikasining sifati.

Bu sohada ham muayyan muammolar mavjud, ya'ni, o'quvchilarning idrok etish faoliyatini tashkil etish qonuniyatlarini hisobga olgan holda yaratilgan ta'lim dasturlari hozircha juda kam, ularni tuzib ishlab chiqish ko'p vaqt va kuch talab etiladi, shu bois ularning narxi ham qimmat. Respublika ta'lim muassasalarida EHMLar soni va ulardan foydalanish ko'lami ortib va takomillashib bormoqda, biroq, bu sohada hali jahon tajribasidan ortda qolish holati bartaraf etilgani yo'q.

2.Ta'lim pedagogik tizimlarining rivojlanish tendensiyasi. Dunyoda shunday ta'lim tizimi yuzaga kelganki, uni ko'pchilik "qo'llab turuvchi, ta'minlovchi, yordamchi o'qitish" deb ataydilar. U odamni kundalik

muammolarni hal etishga tayyorlashga asoslangan bo‘lib, shaxsning faoliyati va hayot tarzini qo‘llab turish uchun mo‘ljallangan.

Ayni vaqtda “innovatsion” (yangilik kiritish) ta’limni tashkil etishga alohida ahamiyat berilmoqda. Mazkur ta’limning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlar mavjud:

1) bu oldindan ko‘ra bilish, ya’ni, o‘quvchisini avvalgi va hozirgi tajribasi asosida o‘qitish emas, balki uni uzoq kelajakni mo‘ljallashga o‘rgatishdan ibora bo‘lib, o‘quvchi ijtimoiy hayot va kasbiy faoliyatda taxmin qilish, ko‘zlash, modellashtirish va loyihalashtirish amalga oshira olishi zarur.

2) o‘quvchining hamkorlikda ta’lim olish va muhim qarorlarni qabul qilish (lokal va xususiylardan tortib dunyoni, madaniyat, sivilizatsiya rivojlanishini hisobga olishdan global muammolarni hal etish)da faol ishtirok etishini ta’minlash.

Oxirgi yillarda masofaviy ta’lim (lotincha distantia – masofa) – masofadan turib o‘qitish keng rivojlanmoqda. Masofaviy o‘qitish – ta’lim texnologiyasi bo‘lib, unga ko‘ra o‘quvchi qaerda va qanday holatda bo‘lishidan qat’iy nazar muayyan ta’lim muassasasi ta’lim dasturini o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu maqsadni amalga oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalari: darsliklar va boshqa bosma nashrlar, o‘rganilayotgan materialni kompyuter telekommunikatsiyalari orqali uzatish, videotasmalar, munozaralar va seminarlar o‘tkazish, regional va milliy televidenie hamda ravdio orqali o‘quv dasturlarini namoyish etish, kabelli televidenie va ovozli pochta, ikki tomonlamali videokonferensiyalar, telefon orqali qayta aloqa bilan bir tomonlama videotranslyasiya va boshqalarning xizmatiga tayaniladi. Masofali o‘qitish o‘qituvchilarga vaqtini tejashda qulaylik yaratadi, asosiy faoliyatidan ajralmagan, jumladan uzoq rayonlarda yashovchilarga o‘qish imkonini yaratadi, o‘quv fanlari erkin tanlanadi, fan, ta’lim va madaniyat mashhur namoyondalari bilan munosabatlar imkonini beradi. O‘quvchi va o‘qituvchilarning faol o‘zaro munosabatlari, mustaqil ishlashni faollashtirish va o‘quvchilarning mustaqil bilim olish ehtiyojlarini qoniqtirishga xizmat qiladi.

3.O‘qishni tashkil etish shakllari va ularning didaktikada rivojlanishi. Jahon pedagogik fani va amaliyotida ta’limni tashkil etishning turli shakllari mavjud. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichi ta’limni tashkil etishga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Ayni vaqtda ta’limning quyidagi shakllari ajratib ko‘rsatiladi: individual, individual-guruhli, sinf-dars, leksion-seminarli va sinfdan tashqari, auditoriyadan tashqari, maktab va maktabdan tashqari. Ular o‘quvchilarni qamrab olishi, o‘quvchilar faoliyatini tashkil etishi, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqilligi darajasi va o‘qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariga ko‘ra quyidagi uch asosiy turga ajratiladi:

- 1) individual;
- 2) sinf-darsli;
- 3) leksion-seminarli.

Qadim zamonlarda mavjud bo‘lgan o‘qitishning eng qadimgi shakli ta’limning individual shakli hisoblanadi. Hayotiy tajribalarni ajdodlardan-avlodlarga uzatish ibtidoiy jamiyatda yuzaga kelgan. YOzuv paydo bo‘lishi bilan qavm boshlig‘i turli belgilar yordamida o‘zining tajribalarini yoshlarga o‘rgatgan. O‘qituvchi va o‘quvchining bevosita va individual aloqasiga misol sifatida repetitorlikni ko‘rsatish mumkin. O‘qishni tashkil etishning individual shakli antik davr va o‘rta asrlarda yagona usul bo‘lgan, undan ba’zi mamlakatlarda XVIII asrgacha keng foydalanilib kelingan.

Individual ta’lim bir qator afzalliklarga ega, shuning uchun bu usuli bizning davrimizgacha repetitorlik shaklida saqlanib qolgan. Uning usutunligi o‘quv faoliyati mazmuni, metodi va suratini to‘la individualashtirish, aniq bir masalani hal etishda uning har bir harakati va operatsiyalarini kuzatib borishga imkon berishidan iborat. Individual ta’lim o‘qituvchining yuqori pedagogik malakaga ega bo‘lishini talab etadi.

Individual o‘qitishning ustunliklari bilan bir qatorda bir qator kamchiliklari ham mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- 1) vaqtning tejamli emasligi;
- 2) o‘qituvchi ta’sirining cheklanganligi (o‘qituvchining vazifasi o‘quvchiga topshiriq berish va uni bajarilishini tekshirishdan iborat);

3) boshqa o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati cheklanganligi (bu holat ijtimoiylashishi jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi);

4) jamoada ishlash tajribasining shakllanmasligi.

Mazkur sabablar XVI asrdan boshlab individual o'qitish usulining ahamiyati pasayib, uning o'rnini ta'limning individual-guruhli shakli egallashiga imkon berdi.

Ta'limning individual-guruhli shaklidagi Evropada XVI asrda keng foydalana boshladilar. Markaziy Osiyo davlatlarida bu usuldan qadim davrlarda ham foydalanganlar. Bunga Avesto davri misol bo'la oladi, bu davrda o'quvchilar uchun asosiy o'quv qo'llanma zardushtiylikning muqaddas manbai "Avesto" (eramizdan avvalgi VII-XVI asrlar) bo'lib kelgan. Avesto davri jamiyatidagi maktablarda individual o'qitish jamoali o'qitish bilan birga olib borilar edi. O'qituvchi "Avesto" kitoblaridan birini ochadi va o'quvchilar navbatma-navbat kelib ovoz chiqarib o'qiydilar, keyin esa hamma birgalikda o'qilganni takrorlaganlar, mashqlarni maxsus taxtachalarda yozganlar. Aqliy mashqlar o'qituvchining o'quvchi bilan erkin suhbatida davomida olib borilgan. Jismoniy tarbiyalash individual va jamoali mashg'ulotlar shaklida amalga oshirilgan. Jismoniy tarbiyaning maqsadi yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashdan iborat bo'lgan. Otda yurish, ov qilish, qilichdan foydalanishni bilish, suvda suzish, yugurish, nayza otish va shu kabilar harbiy tayyorgarlikning majburiy turlari hisoblangan. Ta'lim olish jarayoni kun chiqqandan kun botgungacha davom etgan, uy vazifalari mavjud bo'lmagan¹.

XI asrdayoq Abu Ali ibn Sino o'zining "Tadbiri manzil" nomli ilmiy asarining maxsus "Amuzish va parvarishi modrasas farzand" («Bolalarni maktabda o'qitish va tarbiyalash») bo'limida o'quvchilarga jamoali o'qitish haqida quyidagi tavsiyalarni beradi:

1) agarda o'quvchilar birgalikda o'qisalar, ular zerikmaydilar, fanni o'rganishga qiziqish kuchayadi; ularda bir-birlaridan ortda qolmaslik uchun o'zaro musobaqalashish istagi rivojlanadi, ular bolaning o'qishi yaxshilanishiga yordam beradi.

¹ Авесто. Қадимги Шарқ адабиёти. – Москва, МДНМ, 1984, -с. 352.

2) o‘zaro suhbatlarda o‘quvchilar kitobdan o‘qish yoki kattalardan eshitgan qiziqarli ma’lumotlarni bir-birlariga aytib beradilar;

3) bolalar birgalikda yig‘ilganlarida bir-birilari bilan do‘stlashadilar va bir-birlarini hurmat qiladilar; ular faqatgina musobaqalashmaydilar, balki bir-birlariga o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda yordam beradilar; bu bilan bolalar mag‘rurlanadilar, bir-birlaridan yaxshi odatlarni o‘rganadilar².

Burhoniddin Zarnuji (XII asr) «Bilim olish yo‘lida o‘quvchiga maslahatlar» nomli o‘zining ilmiy asarida dars olib borish bo‘yicha tavsiyalar beradi. Uning ko‘p yillik dars o‘tish tajribalari asosida mazkur ilmiy asar yaratilgan va XX asrgacha o‘ziga xos pedagogika darsligi sifatida Markaziy Osiyo madrasalarida foydalanilib kelingan. Asarda maktabda dars taxminan bir soatlar davom etishi kerakligi yoziladi. O‘qituvchi maktabda darsga tushinish va o‘zlashtirish mumkin bo‘lgan o‘quv materiallarini tanlab olishi, darsda o‘rganilagandigan materiallarni tushuntirib berishi kerak. O‘quv materiali shunday tanlanishi kerakki, u ikki marotaba takrorlanganda o‘zlashtirilsin. SHuning uchun u katta matnlarni qismlarga bo‘lish va boshqa darslarda uni albatta takrorlashni taklif etadi¹.

XV asrda jamoali o‘qitishni tashkil etish g‘oyasini Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek davom ettiradi. Mutafakkir o‘zining madrasalarida individual mashg‘ulotlar tizimini bekor qiladi va “jamoat” sinf-dars tizimiga yaqin bo‘lgan shaklini joriy qiladi. Umumiy ma’ruzani 50-70 nafar kishidan iborat katta guruhga odatda o‘z sohasida mashhur bo‘lgan olim mudarris (o‘qituvchi-professor) o‘qiydi, amaliy mashg‘ulotlarni esa 10-15 kishidan iborat kichik guruhda kichik mudarris (o‘qituvchi) olib boradi. O‘qitishning muhim metodlari munozara va tortishuvlar hisoblangan. Samarqand madrasasida ma’ruzalarni allomaning o‘zi va Qozizoda Rumiy, Mavlono Muhammad, Ali Qushchi, Avaz Kirmani kabi va boshqa mashhur olimlari o‘qiganlar. Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek va uning izdoshlari tomonidan matematika, metafizika, astronomiya, geografiya, tarix fanlaridan yangi darsliklar yaratildi, bu darsliklar oddiy va tushunarli shaklda yozilgan. Lekin

² Рахимов С.Р. Абу Али ибн Синонинг психологик-педагогик ғоялари. – Тошкент, Ёшлар, 1978, - 103-бет.

¹ Анатомия педагогической мысли Узбекистана. – Москва, 1986.

“jamo” usulida ham o‘zining salbiy tomonlari bo‘lgan. Jamo usulida XX asr maktabida mashhur bo‘lgan guruhli-laboratoriya metodida bo‘lgani kabi o‘zlashtirishni individual xususiyati hisobga olinmagan. YAxshi o‘zlashtirmagan ba’zi shogirdlar ham ilg‘orlar qatorida bir qo‘llanmani o‘rganishdan boshqasini o‘rganishga o‘z-o‘zidan o‘tavergan, kerakli bilimni egallay olmagan holda madrasani bitirib chiqadilar².

Individual-guruhli shaklining mazmuni mashg‘ulotlarni o‘qituvchi bir o‘quvchi bilan emas, balki tayyorlik darajasi turlicha bo‘lgan turli yoshdagi bolalar guruhi bilan olib borishidan iborat edi. O‘qituvchi navbat bilan har bir o‘quvchidan o‘tilgan materialni so‘raydi, yangi savollarni tushuntiradi, mustaqil ishlash uchun individual topshiriqlar beradi, qolgan bolalar o‘z ishlari bilan shug‘ullanadilar. O‘qishni bunday tashkil etishda bolalar mashg‘ulotlarga yilning turli davrlarida hamda kunning turli vaqtlarida kelishlari mumkin bo‘lgan.

XV va XVI asrlar davomida Evropada ishlab chiqarishning rivojlanishi kuzatildi. Ushbu o‘zgarishlar bolalarga ta’lim berishning ommaviy shakli yuzaga kelishiga zamin yaratdi.

Ulardan biri bolalarni guruhli (jamoali) ta’lim sanaladi. U /arbiy Rossiya (hozirgi Belorussiya va Ukrainaning g‘arbiy qismlari) birodarlik¹ maktablarida ilk bor qo‘llanilgan va o‘qish sinf-darsli shaklining asosi bo‘lib qolgan. Bu tizimlar XVII asrda YAn Amos Komenskiy tomonidan “Buyuk didaktika” asarida nazariy jihatdan asoslab berildi va ommaviylashtirildi. Olim pedagogikaga o‘quv yili, o‘quv kuni, dars, mashg‘ulotlar orasidagi tanaffus, o‘quv ta’tillari kabi tushunchalarni kiritdi. Quyosh it yulduzlari turkumida bo‘lganida bolalarni dam olishga yuboradilar («ta’til» lotinchada – kunlarning eng qizigan davri deganini bildiradi).

Sinf-dars tizimi garchi 350 yil avval asoslangan bo‘lsada bugungi kunda ham keng ko‘lamda qo‘llanilib kelinmoqda.

Sinf-dars tizimining mazmuni o‘quv ishlarini tashkil etish o‘ziga xos shakli sifatida quyidagilarda iborat:

² М.Тохиров. Мирзо Улубекнинг педагогик ғарашлари. – Тошкент, Фан, 1984.

¹ XVI-XVII асрларда ғарбий Русияда биродарлик ва диний-маърифатпарварлик деб аталувчи ташкилотлар пайдо бўлади.

- bir xil yoshdagi va taxminan bir xildagi tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan o'quvchilar sinfni tashkil etadi. Bu sinf maktabda o'qishning umumiy davriga asosan doimiy tartibini saqlab qoladi;

- sinf faoliyati yagona yillik reja va dastur asosida, doimiy dars jadvali bo'yicha tashkil etiladi, buning natijasida bolalar maktabga yilning bir vaqti va oldindan belgilangan kun soatlarida kelishlari kerak bo'ladi.;

- mashg'ulotlarning asosiy birligi dars hisoblanadi;

- dars odatda bir fan yoki mavzuga bag'ishlangan bo'ladi, shu bois o'quvchilar sinfda bitta material ustida ishlaydilar;

- darsda o'quvchilarning ishiga o'qituvchi rahbarlik qiladi, u o'z fani bo'yicha o'qish natijalari, har bir o'quvchini alohida bilimini baholaydi va yil oxirida o'quvchini keyingi sinfga o'tishi haqida qaror qabul qiladi.

Sinf-dars tizimi K.D.Ushinskiy tomonidan yanada rivojlantiriladi. U bu shaklning hamma ustunliklarini ilmiy asoslab berdi. Dars, ayniqsa, uning tashkiliy qurilishi va tipologiyasining ixcham nazariyasini yaratdi. K.D.Ushinskiy har bir darsning bir-biri bilan ketma-ket bog'langan quyidagi uchta qismini ajratib ko'ratadi:

- 1) ilgari o'rganilgan bilimlar asosida yangi bililarni anglashni amalga oshirish va o'quvchilarda materialni jadal qabul qilishga maqsadli ko'rsatmani yaratishga qaratiladi. Darsning bu qismi K.D.Ushinskiyning fikricha darsga go'yoki "eshik" hisoblanadi.

- 2) asosiy masalani hal etishga yo'naltiriladi va darsning muhim, markaziy qismi hisobalanadi.

- 3) amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasash va bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlashga qaratiladi.

Darsni tashkil etish ilmiy asoslarini ishlab chiqishga A.Disterveg ham katta hissa qo'shdi. U o'qituvchi va o'quvchining faoliyatiga taalluqli o'qitish tamoyillari va qoidalari tizimini ishlab chiqdi, o'quvchilarning yoshi imkoniyatlarini hisobga olishni zarurligini asoslab berdi.

Ta'limning sinf-dars tizimi alohida o'quv fanlarini o'qitish metodikasi va didaktikasiga oid asarlarida uning afzallik va kamchiliklarini ko'rsatib berdi.

Afzalliklari: yaxlit o'quv-tarbiyaviy jarayonning tartibli ketishini ta'minlovchi aniq tashkiliy tizim; jarayonlarning oddiy boshqarilishi: muammoning jamoa bo'lib muhokama qilinishi, masalaning echimini birgalikda izlash jarayonida bolalar o'rtasida o'zaro munosabatlarning shakllanish imkoniyati; o'qituvchining o'quvchilar va ularning tarbiyasiga doimiy emotsional ta'sir ko'rsatishi; ta'limning emotsionalligi (zero, o'qituvchi bir vaqtning o'zida o'quvchilarning katta guruhi bilan ish olib boradi), o'quv faoliyatiga musobaqalashish elementlarini kiritish uchun sharoitning yaratilishi, bilimsizlikdan bilimlarni o'zlashtirish sari harakatlarning muntazamligi va ketma-ketligi.

Kamchiliklari: tizimning asosan bilimlarni o'rtacha darajada o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun mo'ljallanganligi, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun qiyinchiliklarning yuzaga kelishi va kuchli o'zlashtiruvchi o'quvchilar qobiliyatlarining rivojlanish sur'atining ortga surilishi; o'qituvchi uchun o'qitish mazmuni va o'qitish sur'atlari hamda metodlari bo'yicha individual ishlarni tashkil etish, shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishdga qiyinchilikning yuzaga kelishi; katta va kichik yoshli o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarning qaror topmasligi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida aqliy rivojlanishida farqi bo'lgan o'quvchilarni o'qitishda individuallashtirishga ahamiyat qaratish masalasi ayniqsa dolzarb xususiyat kasb etdi. SHunga mos ravishda tanlab o'qitish shakli yuzaga keldi (AQSHda Batov, Evropada Maingeyms tizimi).

Evropa va AQSHda XX asr boshida o'quvchilarning individual, faol, mustaqil o'quv ishlarini ta'minlashga qaratilgan ko'plab ta'lim tizimlarining samaradorligi sinab ko'rilgan. 1905 yili Dalton shahrida (Massachusetts shtati) o'qituvchi Elena Park Xerst tomonidan birinchi bor qo'llanilgan ta'limning individuallashtirilgan tizimi ular orasida eng radikal hisoblangan. Bu tizim dalton-reja nomi bilan pedagogika va maktab tarixiga kirdi. U ba'zan laboratoriya yoki ustaxonalar tizimi deb ham ataydilar.

Bu tizimning mazmuni quyidagilardan iborat: o'quv faoliyatining muvaffaqiyati maktabda ishlash sur'atining har bir o'quvchining imkoniyatlari, ularning qobiliyatlariga moslashtirilishiga bog'liq: ta'lim faoliyati ustun

turadigan o'qishni an'anaviy tashkil etish o'quvchining mustaqil o'quv faoliyatining markaziy hisoblanishi, o'qituvchi vazifasining faoliyatni odob bilan tashkil etishdan iboratligi, sinf laboratoriyalarining ustaxonalar bilan almashtirilishi, darslarning bekor qilinishi, o'qituvchining yangi materialni tushuntirmasligi, o'quvchining laboratoriya yoki ustaxonalarda o'qituvchidan olingan topshiriq asosida mustaqil shug'ullanishlari va zarur bo'lgan paytda o'qituvchidan yordam so'rashlari.

Mazkur tizim bir qator kamchiliklariga ko'ra keskin tanqidga uchragan.

XX asr 20-yillarida maktab ishlari Ilmiy tekshirish instituti ta'limning loyihali tizimini targ'ib qila boshladi. Uni amerikalik U.Kilpatrik ishlab chiqqan. O'qitish bu tizimining mazmuni o'quvchilarning o'zlari loyiha ishlari mavzuni tanlab olishlaridan iborat. U mavjud haqiqiy hayot bilan bog'langan bo'lishi va o'quv guruhi ixtisoslashishlariga qarab (yo'nalishlari) ijtimoiy-siyosiy, xo'jalik-ishlab chiqarish yoki madaniy-turmush tomonlarini aks ettirishi kerak bo'lgan.

60-yillarda Tramk rejasi juda mashhur bo'ldi. Uni amerikalik professor pedagog Lyuyd Tramk ishlab chiqqan. O'qitishni tashkil etishning bu shakli katta auditoriyalarda (100-150 odam) mashg'ulotlarni, 10-15 kishilik guruhlarda va o'quvchilarning individual ishlarini birgalikda olib borishni taklif etadi. Turli xildagi texnik vositalardan foydalanib umumiy ma'ruzalarni olib borishga o'quv vaqtining 40 % i ajratiladi. Kichik guruhlarda mashg'ulotlarga (seminarlar) – 20 % i kabinet va laboratoriyalarda individual mustaqil ishlarni bajarishga 40 % i ajratiladi.

70-yillarda o'qishni tashkil etish noan'anaviy shakllarini izlash davom ettiriladi. Tajriba va sinov maktablarini izlash birinchi navbatda sinf-dars tizimini modernizatsiyalashtirish fikri bilan bog'liq bo'lgan. Izlanishlar asosiy masalasi – o'qishni individuallashtirish edi.

Birinchi universitetlar paydo bo'lishi bilan ta'limning leksion-seminar tizimi yuzaga kela boshlaydi. U yaratilgan paytdan beri xali deyarli hech bir katta o'zgarishlarga ega emas. Ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya ishlari, konsultatsiya va tanlagan kasbi bo'yicha amaliyot hozirgacha leksion-seminar tizim sifatida o'qishning asosiy shakllaridan biri bo'lib kelmoqda.

Leksion-seminar tizimi o'zining sof ko'rinishida oliy va oliy maktabdan keyingi ta'lim amaliyotida qo'llaniladi. O'zbekistonda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tadbiq etilishi bilan leksion-seminar tizimidan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida foydalanila boshlandi. Oxirgi paytlarda leksion-seminar tizimi elementlaridan o'rta maktab katta sinflarida ham qo'llanila boshlandi.

4.Darsda o'quvchilar o'quv faoliyatini tashkil etish zamonaviy shakllarining turlari. Turli dars tuzilmalaridan yanada samaraliroq foydalanish yo'llarini izlashda darsda o'quvchilar o'quv faoliyatlarini tashkil etish shakllari alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda. Pedagogik adabiyotlar va maktab amaliyotida asosan uchta shunday shakllari qabul qilingan – frontal, guruhli va individual.

Frontal shakli sinfning hamma o'quvchilari o'qituvchi rahbarligi ostida birgalikdagi harakatlarini ko'zda tutadi. Guruhli shaklida esa o'quvchilar 3-6 kishidan iborat guruhlar yoki juftliklarda ish olib boradilar. Guruhlar uchun topshiriqlar bir xil yoki turlicha bo'lishi mumkin. Individual shakli har bir o'quvchining alohida mustaqil ishlashini ko'zda tutadi.

O'qitish frontal shaklida o'qituvchi bir vazifa ustida ishlayotgan butun sinf o'quv faoliyatini boshqarib boradi. U o'quvchilarning hamkorliklarini ta'minlaydi va hamma uchun bir bo'lgan ish sur'atini belgilaydi. Frontal ishlashning pedagogik samaraliligi ko'p jihatdan o'qituvchining butun sinfni nazorat qila bilishiga va shu bilan bir vaqtda har bir o'quvchining ishini ko'zdan qochirmasligiga bog'liq bo'ladi. Agarda o'qituvchi ijodiy jamoali ishlash muhitini yarata olsa, o'quvchilar diqqatini va faolliklarini ta'minlab tura olsa samarasi yana oshadi. Ammo frontal ishlash individual farqlarni hisobga olmaydi, u o'rta o'quvchiga mo'ljallangan. SHuning uchun ba'zi o'quvchilar berilgan ish sur'atidan ortda qoladilar, boshqalari esa zerikib qiynalib ketadilar.

O'qish guruhli shaklida o'qituvchi sinf o'quvchilari guruhlarida o'quv-o'rganish faoliyatlarini boshqaradi. O'quvchilarni zvenoli, brigadali, birlashtirish-guruhli va differensiyalangan guruhlariga taqsimlash mumkin.

O'qish zvenoli shakli o'quvchilar doimiy guruhi o'quv faoliyatini tashkil etishni ko'zda tutadi.

Birlashtirish-guruhli shaklida sinfni odatda katta umumiy topshiriqni har biri faqatgina bir qismini bajaradigan guruhlariga ajratishni ko'zda tutadi.

Differensiyalashgan-guruhli ta'lim shakli doimiy guruhlar ham, bir xildagi o'quv imkoniyatlariga ega va o'quv ko'nikmalari bir xil darajada shakllangan o'quvchilarni birlashtirishini ko'zda tutadi. Guruhli shakllariga o'quvchilarning juft bo'lib ishlashlarini ham kiritiladi. O'quv guruhlari faoliyatlarini o'qituvchi o'zi bevosita hamda o'z yordamchilari – o'quvchilar fikriga qarab tayinlangan zvenolar va brigadar orqali boshqaradi.

Individual ta'lim o'quvchilarning boshqa o'quvchilar bilan bevosita aloqalarini ko'zda tutmaydi. O'z mohiyati bilan u ham butun sinf yoki guruhlar uchun bir xil topshiriqni mustaqil bajarishdan boshqa narsa emas. Ammo o'quvchi o'quv imkoniyatlarini hisobga olib turib o'qituvchi bergan topshiriqni mustaqil bajarsa, unda o'qitish bunday tashkiliy shaklini individuallashtirilgan deb ataladi. Bu maqsadlar uchun maxsus ishlab chiqilgan kartochkalardan foydalanish mumkin.

Agarda o'qituvchi darsda bir necha o'quvchiga e'tibor qaratlsa, boshqalar esa mustaqil ishlasalar o'qitish bunday shaklini individual-guruhli deb ataladi.

Zamonaviy ta'lim amaliyotida ko'proq ikki tashkiliy shakllaridan foydalaniladi: frontal va individual. Guruhli va juftli o'qish shaklidan amaliyotda ancha keng foydalaniladi.

O'qishning frontal shakli ham, guruhli shakli ham jamoaviy hisoblanmaydi, lekin ba'zan ularni shunday deb ko'rsatishga harakat qiladilar. Ko'pchilik didakt olimlar ana shu holatga e'tibor beradilar. Ular rasman jamoada olib borilayotgan har qanday ish ham mazmunan jamoali hisoblanmaydi deb ta'kidlaydilar. O'zining xususiyati bo'yicha u umuman individual bo'lishi mumkin.

Jamoaviy ishlash faqatgina differensiyalashgan guruhli ishlar asosidagina tashkil etiladi. O'quv ishlarini tashkil etishning jamoaviy shakli

o'qituvchi va o'quvchilarning dinamik yoki o'zgaruvchan tartibli juftliklarida kechayotgan munosabatlaridir.

Ta'lim maqsadlari va foydalanshning qulayligi nuqtai nazaridan ta'lim shakllarining quyidagi turlari ajratilib ko'rsatiladi: asosiy, qo'shimcha va yordamchi.

5.Dars-o'qishni tashkil etish asosiy shakli. Ta'lim jarayoni yaxlitligi nuqtai nazaridan o'qishning asosiy tashkiliy usuli dars hisoblanadi. Unda sinf-dars o'qitish tizimining ustunliklari aks ettiriladi, bu shaklda o'quvchilarni ommaviy qamrab olish bilan tashkiliy tartib va o'quv ishlarining muntazamligini ta'minlaydi. Dars iqtisodiy jihatdan foydalidir. O'qituvchining o'quvchilar individual xususiyatlarini va o'quvchilarning bir-birlarini bilishlari sinf jamoasining har bir o'quvchi o'quv faoliyatiga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishidan foydalanish imkonini beradi. Dars doirasida frontal, guruhli va individual ta'lim shakllarini birlashtirish imkoniyati uning rad etib bo'lmaydigan ustunligi hisoblanadi.

Dars o'qituvchining rahbarligi asosida aniq belgilangan vaqt davomida o'quvchilar guruhi (sinf)ni ularning har biri xususiyatlarini hisobga olish, hamma o'quvchilar bevosita mashg'ulot davomida o'rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, o'quvchilarning idrok etish qobiliyatlari va ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratuvchi ish vositalari, metodlaridan foydalanishning tashkiliy shaklidir.

Dars ta'limning boshqa shakllaridan farq qiluvchi o'ziga xos belgilarga ega, chunonchi: o'quvchilarning doimiy guruhi, o'quvchilar faoliyatiga ularning har biri xususiyatlarini hisobga olish bilan rahbarlik qilish, o'rganilayotgan fan asoslarini bevosita darsda egallab olish (bu belgilari darsning faqat mazmunini emas, balki o'z xususiyatini ham aks ettiradi).

Darsning tuzilishi oddiy va ancha murakkab bo'lishi mumkin. Bu o'quv materialining mazmuni, darsning didaktik maqsadi, o'quvchilar va jamoa sifatida sinfning xususiyatlariga bog'liq..

Zamonaviy didaktikada dars quyidagi turlari ajratib ko'rsatilgan:

- aralash darslar;

- yangi ma'lumotlar, aniq hodisalar bilan tanishish bo'yicha yoki umumlashtirishlarni anglab etish va o'zlashtirish maqsadiga ega darslar;
- bilimlarini mustahkamlash va takrorlash darslari;
- o'rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish asosiy maqsadiga ega darslar;
- malaka va ko'nikmalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darslari;
- bilimlarni tekshirish va tekshirish ishlarini o'rganish darsi;
- o'z tuzilishi bo'yicha oddiy bo'lgan, ya'ni bitta asosiy didaktik maqsadga ega bo'lgan dars turlari (o'rta va katta sinflarda qo'llash uchun mos keladi).

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar yoshlarini hisobga olib o'quv ishlari turli xillaridan foydalanishga, yangi bilimlarni berishni avval ilgari o'rganilganni mustahkamlash, takrorlash bilan birga olib borishga to'g'ri keladi. Hatto tekshirish darslari ham bu erda ko'pincha ishlar boshqa turlarini o'z ichiga oladi: materialni og'zaki etkazish. qiziqarli hikoyani o'qish. Darsning aynan mana shu turi aralash (kombinatsiyalashgan), yoki murakkab tuzilishli deb ataladi. Kombinatsiyalashgan darsning taxminiy tuzilishi: uy vazifalarini tekshirish va o'quvchilar bilan savol-javob, yangi materialni o'rganish, o'zlashtirishini dastlabki tekshirish, mashq misollari davomida yangi bilimlarini mustahkamlash, ilgari o'rganilganlarni suhbat ko'rinishida takrorlash, o'quvchilar bilimlarini tekshirish va baholash, uyga vazifa berish.

O'quvchilarning yangi materiallar bilan tanishish darsi yoki yangi bilimlarni berish (o'rganish) darsi nisbatan keng doiradagi savollarni o'z ichiga olgan va uni o'rganishga ko'p vaqtini talab qiluvchi, o'quvchilarga tanish bo'lmagan yangi material uning mazmuni bo'lgan ta'lim jarayoni. Bunday darslarda uning mazmuni, aniq maqsadi va o'quvchilarning mustaqil ish bajarishga tayyorgarliklariga qarab ba'zi hollarda yangi materialni o'zi bayon etadi. Boshqa hollarda esa – o'qituvchi rahbarligi ostida o'quvchilarning mustaqil ishlari olib boriladi, uchinchi holda – unisi ham bunisidan ham foydalaniladi. Yangi material bilan tanishish darsining tuzilishi: yangi materialni o'rganish uchun asos bo'lgan avvalgi materialni takrorlash.

o'qituvchining yangi materialni va darslik bilan ishlashni tushuntirishi, bilimlarni tushunishlarini tekshirish va dastlabki mustahkamlash, uyga vazifa berish.

Bilimlarni mustahkamlash darslarida o'quv ishining asosiy mazmuni ilgari o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkam o'zlashtirish maqsadida ularni ikkinchi bor tushunib olish hisoblanadi.

O'quvchilar o'z bilimlarini yangi manbalar bo'yicha anglab oladilar va chuqurlashtiradilar yoki ularga ma'lum bo'lgan qoidaga yangi masalalar echadilar, ilgari olgan bilimlarini og'zaki va yozma takrorlaydilar yoki ilgari o'rganganlarini yanada chuqurroq va mustahkam o'zlashtirish maqsadida ulardan alohida masalalar bo'yicha axborot beradilar. Tuzilishi bo'yicha bunday darslar quyidagi bosqichlardan o'tishni ko'zda tutadi: uy vazifasini tekshirish, og'zaki va yozma mashqlarni bajarish, topshiriqni bajarishni tekshirish, uyga vazifa berish.

Ko'nikma va malakalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darslari bilimlarni mustahkamlash darslari bilan bog'liqdir. Bu jarayon bir necha maxsus darslar jarayonida amalga oshiriladi. Boshqa darslarda yangi mavzularni o'rganishda davom ettiriladi. SHu bilan birga avvaliga mashqni bajarish ishlari bolalar tomonidan o'qituvchi yordamida va ular topshiriqni qanday tushunganlarini dastlab jiddiy tekshirish bilan bajarilsa, keyinchalik esa qaerda qanday qoida qo'llanilishini o'quvchilarning o'zlari belgilaydilar. Ular turli vaziyatlarda malaka va ko'nikmalarini qo'llash, shu jumladan, hayotiy amaliyotida qo'llashni o'zlashtirib olishlari kerak.

Umumlashtiruvchi darslari (bilimlarini umumlashtirish va tizimlashtirishlar) ilgari o'tilgan materialdan eng muhim savollari qayta takrorlanadigan va tizimlashtiriladigan, o'quvchilar bilimlarida mavjud kamchiliklari to'ldiriladigan va o'rganilayotgan kursning muhim g'oyalari ochib beriladigan darslar hisoblanadi. Umumlashtiruvchi darslar mavzu, bo'lim va o'quv kurslarining yakunida o'tkaziladi. Kirish va yakunlash darsning tarkibiy elementi hisoblanadi. Takrorlash va umumlashtirishning o'zi hikoya, qisqacha xabarlar, darslikni o'qib berish yoki o'qituvchining o'quvchilar bilan suhbatlashishi shaklida o'tkazilishi mumkin.

Tekshirish (nazorat) darslari o'qituvchiga o'quvchilarning ma'lum sohadagi bilim, malaka va ko'nikmalari shakllanganlik darajasi, o'quv materialini egallashdagi kamchiliklarni aniqlash, shuningdek, navbatdagi topshiriqlarning bajarish yo'llarini belgilab olishga yordam beradi. Tekshirish darslari o'quvchidan ushbu mavzu bo'yicha uning hamma bilim, ko'nikma va malakalarini qo'llashini talab etadi. Tekshirish og'zaki hamda yozma shaklda ham amalga oshirilishi mumkin.

YUqorida ifodalangan hamma darslarning majburiy elementi tashkiliy va yakuniy bosqich hisoblanadi. Tashkiliy bosqich maqsadlarni qo'yish va ularni o'quvchilar tomonidan qabul qilish sharoitlari ta'minlash, ish sharoitini yaratish, o'quv faoliyati motivlarini dolzarblashtirish va materialni idrok etish, anglash, eslab qolish yuzasidan beriladigan ko'rsatmalarni shakllantirishni ko'zda tutadi. Darsga yakun yasash bosqichida maqsadlarga erishish qayd etiladi, ularga erishishda barcha yoki yakka o'quvchilarning alohida ishtiroki belgilanadi, ishlari baholanadi va istiqbollari belgilanadi.

Ta'limning tashkiliy shakli sifatida **dars** – dinamik hodisadir. U pedagogik jarayonning yaxlitligini ta'minlaydi va ta'limiy-tarbiyaviy-rivojlantirish vazifalarini ijobiy echimini topishga imkon beradi.

Dars rivojlanishining asosiy tendensiyalari darsga bo'lgan talablarda o'zining aniq ifodasini topadi.

Zamonaviy darslar quyidagi talablarga javob bera olishi lozim:

- fanning ilg'or yutuqlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darsni o'quv-tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etish;
- darsda barcha didaktik tamoyil va qoidalarning optimal nisbatlarini ta'minlash;
- o'quvchilarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olish asosida ular tomonidan bilimlarning puxta o'zlashtirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- o'quvchilar anglab etadigan fanlararo bog'liqliklarni o'rnatish;
- ilgari o'rganilgan bilim va malakalari, shuningdek, o'quvchilarning rivojlanish darajasiga tayanish;

- shaxsning har tomonlama rivojlantirishni motivatsiyalash va faollashtirish;
- o'quv-tarbiyaviy faoliyat barcha bosqichlarining mantiqiyliigi va emotsionalligi;
- pedagogik vositalardan samarali foydalanish;
- zarur bilim, ko'nikma va malakalar, fikrlash va faoliyat ratsional usullarini shakllantirish;
- mavjud bilimlarni doimo boyitib borish ehtiyojini yuzaga keltirish;
- har bir darsni puxta loyihalashtirish, rejalashtirish, tashhis va taxmin qilish.

Har bir dars quyidagi uchta asosiy maqsadga erishishga yo'naltiriladi: o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish. Ana shularni hisobga olib darsga umumiy talablar didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi talablarda aniq ifodalanadi.

Didaktik (yoki ta'lim)iy talablarga har bir darsning ta'lim vazifalarini aniq belgilash, darsni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish bilan mazmunini optimallashtirish, idrok etish eng yangi texnologiyalarini kiritish, turli xildagi shakli, metodlari va ko'rinishlaridan mos ravishda foydalanish, dars tuzilishini shakllantirishga ijodiy yondoshish, jamoaviy faoliyat usullari bilan birga o'quvchilar mustaqil faoliyatlarini turli shakllaridan birga foydalanish, operativ qayta aloqani ta'minlash, amaliy nazorat va boshqaruvni amalga oshirish, ilmiy mo'ljal va darsni mahorat bilan o'tkazishni ta'minlash kabilar kiradi.

Darsga **tarbiyaviy talablar** o'quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, darsdagi faoliyat, aniq erishilishi mumkin bo'lgan tarbiyaviy maqsadlarni shakllantirish va qo'yish, faqat o'quv ishlari maqsadlari va mazmunidan tabiiy ravishda kelib chiqadigan tarbiyaviy masalalarni belgilash, o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlarda tarbiyalash, hayotiy muhim sifatlar (tirishqoqlik, tartiblilik, mas'uliyatlilik, intizomlilik, mustaqillik, ish bajarishga qobiliyatlilik, e'tiborlilik, halollik va boshqalar)ni shakllantirish, o'quvchilarga diqqat-e'tiborli munosabatda bo'lib, pedagogik

odob talablariga amal qilish, o'quvchilar bilan hamkorlik va ularning muvaffaqiyat qozonishlaridan manfaatdor bo'lishdan iborat.

Barcha darslarda doim amalga oshirilib boriladigan **rivojlantiruvchi talablarga** o'quvchilarda o'quv-o'rganish faoliyati ijobiy sifatlari, qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faollik shakllantirish hamda rivojlantirish, o'quvchilarning idrok etish imkoniyatlari darajasini o'rganish, hisobga olish, "rivojlanishning yaqin zonasini loyihalashtirish", "o'zib ketish" darajasidagi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, rivojlanishidagi yangi o'zgarishlarni rag'batlantirish, o'quvchilarning intellektual, emotsional, ijtimoiy rivojlanishlaridagi «sakrash»larni oldindan ko'ra bilish, boshlanayotgan o'zgarishlarni hisobga olish asosida o'quv mashg'ulotlarini operativ qayta qurish kabilar kiradi.

Nostandart darslar. XX asr 70-yillari o'rtalarida milliy maktablarda o'quvchilarning mashg'ulotlarga qiziqishlarining pasayish xavfi aniqlandi. Muammoni bartaraf etish maqsadida nostandart darslarning tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratildi. Nostandart dars an'anaviy tuzilishdagi improvizatsion o'quv mashg'ulotidir.

Pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish nostandart darslarning o'nlab turlari mavjudligini ko'rsatdi. Ular orasida "berilish" darsi, amaliy o'yinlar, matbuot konferensiyalari, ijodiy hisobotlar, musobaqalar, KVN turidagi o'yinlar, tanlov, teatrlashtirilgan darslar, binar, kompyuterli darslar, fantaziylar, "sudlar", haqiqatni izlash, "paradokslar", auksionlar, dialoglar va boshqalar bor.

O'qituvchining darsga tayyorgarligi. Darsning samaradorligi uning puxta tayyorlanganligi va samarali tashkil etilganligi bilan bog'liq. YAxshi rejalashtirilmagan, etarlicha o'ylab chiqilmagan, shoshilinch tuzilgan va o'quvchilar imkoniyatlariga moslashtirilmagan dars sifatli bo'la olmaydi. Darsga tayyorgarlik aniq sharoitlarda eng yuqori yakuniy natijaga erishishni ta'minlovchi o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etilishini ta'minlash, kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishdir.

O'qituvchining darsga tayyorgarligida quyidagi uchta bosqich ko'zga tashlanadi: diagnostika (tashhislash), prognoz (bashorat) qilish, loyihalashtirish

(rejalashtirish). SHu bilan birga o'qituvchi amaliy materiallarni yaxshi bilishi, o'z fanini erkin olib borishga erishishi lozim. Darsga tayyorgarlik asosini bo'lajak mashg'ultning algoritmlari, samaradorligi bog'liq bo'lgan omillar va holatlarni hisobga olishni ta'minlovchi qadamlarni ketma-ket tartib bilan bajarish tashkil etadi.

Algoritmni amalga oshirish aniq sharoitlarni diagnostika qilish bilan boshlanadi. Diagnostika – bu darsni tashkil etishning barcha vaziyatlarini “oydinlashtirib” olishdir. Unda o'quvchilarning imkoniyatlari, ularning faoliyatlari va xulqlari, motivlari, talab va layoqatlari, qiziqish va qobiliyatlari, bilimdonlik darajasi, o'quv materialining xususiyati, uning amaliy ahamiyati, dars tuzilishi, yangi axborotni o'zlashtirish, mustahkamlash va tizimlashtirish, bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish hamda tuzatish kabi holatlar namoyon bo'ladi.

Prognoz (bashorat) qilish bo'lajak darsni o'tkazishning turli varianlarini baholash va ulardan qabul qilingan kriteriy bo'yicha eng ma'qulini tanlab olishga qaratiladi.

Loyihalashtirish (rejalashtirish) darsga tayyorlanishning yakuniy bosqichidir. Uning natijasi o'quvchilar idrok etish faoliyatini boshqarish dasturining yaratilishi hisoblanadi. Boshqarish dasturi qisqa va aniq, erkin tuzilgan, pedagog o'zi uchun boshqarish jarayoni muhim vaziyatlari (kimdan va qachon so'rash, qaerda mavzuni kiritish, mashg'ulot keyingi bosqichiga qanday o'tish, oldindan ko'zda tutilmagan qiyinchiliklar yuzaga kelganida jarayonni qaysi sxema bo'yicha qayta o'zgartirish)ni belgilab olishga imkon beruvchi hujjatdir. Boshqarish dasturi darsning an'anaviy rejasidan boshqarish ta'sir ko'rsatishlarini aniq va tushunarli belgilab olish bilan farq qiladi.

O'qishning yordamchi shakllari. O'qishning yordamchi shakllari: to'garak, praktikum, seminar, konferensiya va konsultatsiya, fakultativ mashg'ulot, o'quv ekskursiyalari, o'quvchilarning mustaqil uy ishlari va boshqalar sanaladi.

Maktabdan tashqari mashg'ulotlarning asosiy va barqaror turlariga o'qish jarayonining tarkibiy qismi sifatida qaraladigan, o'quvchilarning mustaqil uy ishlari kiradi. Uning asosiy maqsadi – darsda o'zlashtirilgan bilim,

ko'nikma va malakalarini kengaytirish, chuqurlashtirish, ularni esdan chiqarishning oldini olish, o'quvchilarning individual layoqati, iste'dod va qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Bu ishlar o'quv dasturi talablari, o'quvchilarning qiziqish va ehtiyojlari hamda ularning rivojlanish darajalarini hisobga olib quriladi. O'quvchilarning mustaqil uy ishlari ma'lum didaktik vazifalarni bajaradi. CHunonchi, darsda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, sinfda ishlab chiqilgan o'quv materialini kengaytirish va chuqurlashtirish, mashqlarni mustaqil bajarish ko'nikmalarini shakllantirish, dasturli material doirasiga kiruvchi hajmda individual topshiriqlarni bajarish asosida mustaqil fikrlashini rivojlantirish, individual kuzatishlar, tajribalar, gerbariy, tabiiy namunalar, otkritkalar, rasmlar, gazeta va jurnal lavhalari statistik ma'lumotlar kabi o'quv qo'llanmalarini to'plash va tayyorlash va boshqalar.

Darslarda pedagogning o'quvchilar tomonidan uy vazifalarining halol bajarishlariga kam e'tibor berayotganliklari, ularni sinfda tekshirishga uninmasliklari, yaxshi o'zlashtirayotgan o'quvchilarni rag'batlantirib bormasliklari ta'lim amaliyotda keng tarqalgan kamchilik hisoblanadi. Uy vazifalarini tushuntirib berishga ko'pincha vaqt etmaydi, ular shoshilinch beriladi. Pedagoglar kamdan-kam hollarda o'quvchilar uy vazifasini bajarayotganda duch keladigan qiyinchiliklarini ko'rsatib beradilar, ularni bartaraf etish yo'lini esa ko'rsatmaydilar. Natijasida mustaqil uy vazifalarining bajarilishi samarasiz bo'lib qoldi.

Fan to'garaklari yo'nalishi, mazmuni, ish metodi, o'qish vaqti va boshqa jihatlari bilan ajralib turadi. Ular o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish, o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi.. To'garaklar o'qishni hayot bilan aloqasini kuchaytiradi, fanlararo bog'liqlikni rivojlantiradi. Fan to'garaklarida o'quvchilarning ishlari o'quv jarayonini faollashtiradi, o'qish sifatini oshirishga yordam beradi.

Ta'limning yordamchi shakllariga ekskursiyalar ham kiradi. Ular frontal, guruhli va kichik guruhli bo'lishi mumkin. O'quv ekskursiyalari alohida fanlar hamda bir qancha fanlar bo'yicha ham rejalashtiriladi. Ekskursiyani muvaffaqiyatli o'tkazish uchun o'qituvchi unga puxta

tayyorlanishi: ob'ekt va mashrut bilan oldindan tanishib chiqishi, to'la rejani ishlab chiqishi, o'quvchilarni bo'lajak topshiriqlarni bajarishga jalb eta olishi kerak. Ekskursiya rejasida mavzu va maqsad, ob'ekt, u bilan tanishish tartibi, o'quvchilar idrok etish faoliyatlarini tashkil etish, topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan vositalar va uskunalar, yakun yasash ko'rsatiladi. Ekskursiyani o'tkazish metodikasi mavzu, didaktik maqsad, o'quvchilarning yoshi, ularning rivojlanishi hamda ekskursiya ob'ektiga bog'liq bo'ladi.

Maktab o'quv rejasi **turli fakultativ va tanlovi bo'yicha kurslarni** tashkil etishni ko'zda tutadi. Ular o'quvchilar, ularning ota-onalari istak va qiziqishlarini hisobga olish bilan ishlab chiqiladi. Amaliyotda fermerlik, iqtisod, elektro va radiotexnika, elektronika, polimerlar ximiyasi, astrofizika, psixologiya, etika, antik tarix, botanika ba'zi sohalari, ikkinchi chet tili, etnografiya, stenografiya, kutubxona ishi, rassomchilik, musiqa kabi kurslarni fakultativ sifatida o'rganiladi. Fakultativ va fanlarni ro'yxatini aniqlashda faqat o'quvchilar istaklari emas, balki ijtimoiy talablar va maktab imkoniyatidan kelib chiqiladi. Fakultativ va tanlovi bo'yicha mashg'ulotlar majburiy va umumiy o'rta ta'lim fanlari bilan uzviy bog'liqlikda o'tkazilishi kerak.

Konsultatsiya (o'quv suhbat)ga talablar ko'pincha o'quvchilarning ma'lum o'quv material yoki topshirig'i ustida mustaqil ishlashi sababli yuzaga keladi. Bunda ko'proq o'quvchi savol beradi. To'g'ri tashkil etilgan konsultatsiya o'quvchilarga o'quv materialini egallashda qiyinchiliklarni engishga yordam beradi. Konsultatsiya davomida o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini u yoki bu masalani to'g'ri tushunishga mustaqil keladigan, ular uchun qiyin topshiriqni tushunib oladigan qilib, o'rganilayotgan materialni mohiyatini ochishga o'rganadigan qilib yo'naltiradi. Konsultatsiya o'qituvchiga o'quvchilar bilimlaridagi kamchiliklarni aniqlash, alohida e'tibor berishni talab etuvchi vaziyatlarga ularning diqqatini jalb etishga imkon beradi. To'g'ri tashkil etilgan konsultatsiya o'quvchilarda o'zini nazorat qilish, bilimlarga tanqidiy ko'z bilan qarashni tarbiyalaydi. O'qimishlilik darajasini to'g'ri aniqlashga yordam beradi.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida ta'limning leksion-amaliy tizimi, uning belgilari va xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ko'zda tutilgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari mustaqil hayotga kirib kelayotgan yoshlarga muayyan soha yo'nalishi bo'yicha chuqur, differentsiyalashgan kasbiy bilimlar berish imkoniyatini yaratadi.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida ta'limning leksion-amaliy tizimidan foydalaniladi. Mashg'ulotlar ikkita birlashtirilgan darslar ko'rinishida 90 minut davom etadi. Ularning o'ziga xosliklari quyidagilardan iborat:

- leksiya o'quvchilarning mustaqil ishlari uchun taxminiy asos sifatida katta hajmdagi tizimlashtirilgan axborotlarni berishning asosiy shakli (90 minut tashkil etiladi);
- amaliy mashg'ulot akademik litsey, kasb-hunar kolleji o'qituvchisi rahbarligi ostida olgan o'quv axborotlari (leksiya va mustaqil ishlari)ni chuqurlashtirish, tahlil qilish, kengaytirish, qo'llash va o'zlashtirilishini nazoratni tashkil etish shakli;
- akademik litsey, kasb-hunar kollejida o'qish asosiy shakli sifatida o'quvchilarning mustaqil faoliyatlari amalga oshiriladi;
- o'quv guruhi o'quvchilarni uyushtirishning asosiy shakli (uning doimiy tartibi odatda butun ta'lim davomida saqlanib qoladi);
- o'quv guruhlari to'plami akademik litsey, kasb-hunar kollejida kurslardan iborat bo'ladi;
- kurslarda o'quv mashg'ulotlari jadvalga binoan yagona o'quv rejasi va dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi;
- o'quv yili ikki semestr, attestatsiya davri va ta'tillarga bo'linadi;
- har bir semestr hamma o'quv fanlari bo'yicha yakuniy attestatsiya (imtihon topshirish) bilan yakunlanadi;
- akademik litsey, kasb-hunar kollejida o'qish muhim fanlar bo'yicha attestatsiya (bitiruv imtihonlarini topshirish) va mutaxassisligi bo'yicha bitiruv malakaviy ishni himoya qilish bilan yakunlanadi.

Akademik litsey, kasb-hunar kollejlarda ta'lim ma'ruza, seminar, laboratoriya ishi, o'quvchilarning ilmiy tadqiqotchilik ishlari (O'ITI), o'quvchilarning mustaqil o'quv ishlari, ishlab chiqarish amaliyoti, chet elda ish tajribasini oshirish kabi shakllarda tashkil etiladi. Ta'lim natijalarini nazorat qilish va baholash shakli sifatida kundalik, oraliq va yakuniy nazorat, baholash reytingi tizimidan, referativ va kurs, bitiruv ishlaridan foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, SHarq nashriyot-matbaa konserni, 1997.
2. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, SHarq nashriyot-matbaa konserni, 1997.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent, SHarq nashriyot-matbaa konserni, 1997.
4. Mavlonova R. va boshq. Pedagogika. – Toshkent, O'qituvchi, 2001.